

AYOL MA'NAVİYATINING O'ZGARISHIDAGI OMILLAR

M. Jo'rayeva
FarDU, (PhD) dotsenti

X. Odilov
FarDU magistranti

Annotatsiya. Maqolada Abduqayum Yo'ldoshevning qissachilik mahorati, xarakterlar to'qnashuvi, ayol qismati, ayol xarakterini o'zgarishida tashqi omillarning o'rni, ayol va erkak munosabati, ayollar ruhiyati tasviri, oila psixologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: obraz, xarakter, ruhiyat, oila psixologiyasi, ayol xakteri, tashqi muhit, ayol va erkak munosabati.

Аннотация: В статье рассказывается о повествовательном мастерстве Абдукаюма Юлдошева, конфликтах характеров, женской судьбе, роли внешних факторов в изменении женского характера, взаимоотношениях женщины и мужчины, изображении женской психики, семейной психологии.

Ключевые слова: образ, характер, психика, семейная психология, женский характер, внешняя среда, женское и мужское отношение.

Annotation: The article talks about Abduqayum Yoldoshev's storytelling skills, character conflicts, female destiny, the role of external factors in the change of female character, female and male relationship, depiction of women's psyche, family psychology.

Key words: image, character, psyche, family psychology, female character, external environment, female and male relationship.

Abduqayum Yo'ldoshevning "Otchopar yohud o'n uchinchi uy" qissasida bozor mavzusi orqali ayollar xakteri va ma'naviyatida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar ochib berilgan. Asarning nomlanishi ham o'quvchi diqqatini darhol o'ziga tortadi. Aslida Otchopar (Ippodrom) mashhur bozorning nomi. Ikkinchi tomondan, otchoparso'zi manfaatlar yo'lidagi to'qnashuvlar foyda ketidan quvishlar to'xtamaydigan joy, hamma narsa sotiladigan va sotib olinadigan maskan, nafs yo'lidagi poygalar hech qachon tinmaydigan maydon ma'nolarida ham anglashilishi mumkin. "O'n uch" raqamiga kelsak, bunda ham chuqur ramziy ma'nolar bor. Ko'pgina xalqlarda 13 raqami xosiyatsiz hisoblanadi. Yana bir tomondan esa 13 taqsimlanmaydigan raqam. Qissadagi personajlar taqdirini ko'z oldimizga keltirsak, Nozima bilan Flora – Janna rejalashtirgan foyda o'rtada taqsimlanmay qoladi, aksincha, kutilmagan fojealarga olib keladi. Nozima bilan Osiyo opa o'rtasidagi hamsoyalar ustidan davraboshlik uchun pinhona kurashlar ham ko'z ko'rib, quloq eshitmagan fojealarga olib keladi. Pirovard oqibatda qissaning bosh qahramoni ruhiy xastalikka duchor bo'lganida ham shifoxonaning aynan 13 raqamli palatasiga yotqiziladi.

Qissa voqealariga turtki beruvchi asosiy hodisalar nurab borayotgan sho'rolar hukmronligining so'nggi yillaridan boshlanadi. Iqtisodiy bo'hronlar,

boshboshdoqlik, odamlarning asta-sekin tabaqalarga ajrala boshlashi, nihoyat, bozor iqtisodiyotining boshlanishi pallalaridagi ijtimoiy-maishiy hayotda ro‘y bergan voqea-hodisalar qissa syujetining asosini tashkil qiladi. Narx-navolarning keskin oshib borishi, odamlarning tirikchilik dardida o‘zini o‘tga-cho‘qqa urishi, asta-sekin oradan ko‘tarilayotgan mehr-oqibat tushunchalari qissada bosqichma-bosqich realistik tasvirlarda ifodalanadi. Ana shunday sharoitda yangi davrning yangi qahramonlari maydonga chiqa boshlaydilar. Bunday yangi qahramonlar sirasiga ayollarni ham kiritishimiz mumkin. Shulardan biri “Nozimaxon yangi zamonning yangi ayollaridan, ya’nikim otchoparning beli baquvvat sohibalaridan edi”.

Yozuvchining Nozimaga bergan ta’riflari, tashqi qiyofasi tasviri, ayrim xatti-harakatlari o‘quvchida dastlab salbiy fikr uyg‘otadi. Biroq uning qalbiga chuqurroq kirib borgani sari o‘quvchi ko‘z o‘ngida Nozimaning tashqi ko‘rinishi, yurish-turishi, fe’l-atvori bilan zamonaviy bozor ayolining tipik obrazini namoyon qila boshlaydi. Nozima o‘zining xarakteri bilan qissadagi boshqa bekorchi ayollardan o‘zining axloqan pokizaligi, halolligi, to‘g‘ri so‘zligi, eriga vafodorligi, ishonuvchanligi bilan tubdan farq qiladi. Yozuvchi ayol tabiatiga xos bu azaliy fazilatlarning qiyinchilik bilan saqlanib qolishini otchopar bozori muhitidagi illatlar bilan goh oshkora, goh pinhona to‘qnashuvlar jarayonida aks ettiradi. Natijada xarakterlar yuzma-yuz uchrashuvlar jarayonida ham, ichki to‘qnashuvlar tarzida ham o‘sib o‘zgarib boradi. Taniqli adabiyotshunos U. Normatov ta’kidlaganidek, so‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida paydo bo‘layotgan bu “Yangi inson bu tuyg‘ulardan voz kechmasligi, aksincha, ularni yanada ravnaq ettirib borishi kerak. Chunki, axir, ota-ona, aka-ukalar ham xalq deb atalgan ummonning tomchilari emasmi? Xalq baxti uchun kurashar ekanmiz, shu xalq yonginamizda turgan vakillari bizning yordamimizga, madadimizga muhtoj bo‘lganida nega ular uchun jon kuydirmasligimiz kerak”. [1, 68- bet]

Nozima ana shunday tuyg‘ularga, mehrga to‘la ayol. U erta-yu kech bozorda boylik orttirish uchun emas, balki ota-onasi, aka-ukalari, ayniqsa nogiron singlisining sog‘ligini yaxshilash uchun ishlaydi. Qishloqdagi qarindosh-urug‘lariga yordam qo‘lini cho‘zadi. U zamona zayli, tirikchilik taqozosi bilan bozorchi bo‘lib qolmagan. Bu ayol o‘zini bozorchi deb hisoblaydigan, foyda ketidan tinmay halloslab, o‘zining insoniy qiyofasini yo‘qotib qo‘yadigan ayrim kimsalar toifasidan ham emas. Shu bilan birga asarda bozorni o‘z uyim deb biladigan yana bir necha bozorchi ayollar ham uchraydiki, bu toifadagi qahramonlar “Faqat “o‘zim bo‘lay” birov uchun jon koyitish kerak bo‘lsa saratonda qo‘li sovqotadigan, lekin foyda chiqadigan joyda lo‘lining eshagini sug‘orishlar ham qaytmaydigan odamlar oz emas” [1, 68-bet] ligini isbotlaydi.

Ana shunday insonlar sirasiga asardagi Qo‘zivoy bo‘lsa, yana biri odamlarga firib berishda ustasi farang, boshqalarning boshiga kulfat keltirishdan toymaydigan Flora kabilar kiradi. Biz aynan Qo‘zivoy obrazi orqali tashqi ko‘rinishidan qanchalik shaldir-shuldir bo‘lmasin, uning vositasida Nozimaning aslida ichki

olami nechog'lik boyligi, nafsoniyati kuchliligini, insoniy oriyatni, ayollik nomusini har narsadan ustun qo'ya olishini bilib olamiz.

Adabiy asarda xarakter ruhiyatini ochish, umuman, inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan yana biri personaj nutqidir. Zamonaviy nasrda dialog salmog'ining ortishi barobari personaj nutqining obraz yaratishdagi mavqei ham kuchaydi. Mohir yozuvchi personaj nutqini individuallashtirish orqali uning shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan hayotiy holatdagi ruhiyati haqida o'quvchiga ko'p narsalarni yetkaza oladi. Aytish kerakki, dialoglarda personaj nutqi muallifning qisqa, lo'nda sharhlari bilan ta'minlanadi. Personajning yuz-ko'z ifodasi, mimikasi, undagi fiziologik o'zgarishlar haqida ma'lumot beruvchi detallar dialogda juda katta ahamiyat kasb etadi. Ular personaj nutqini "eshitish" va uning xatti-harakatini "ko'rib turish" imkonini — sahnaviylik effektini yaratadi, ya'ni, inson obrazining to'laqonli, jonli chiqishini ta'minlaydi. Adabiyotshunoslikda inson obrazi bilan bog'liq holda badiiy obrazning yana bir muhim xususiyati — uning o'z xarakter mantiqidan kelib chiqqan holda harakatlanishiga alohida diqqat qilinadi. [2, 77-bet]

Bozor muhitining shafqatsiz o'yinlari, turli falokatlar, foiz hisobiga ko'payib ketgan qarzlilar, omborxonaning kutilmaganda yonib ketishi, keskin o'zgargan tanish — bilishlar, qo'ni-qo'shnilarining muomala-munosabatlari oxir-oqibatda Nozimani eng nafratlanadigan odami — Qo'zivoyni ham qarz so'rashga majbur qiladi.

Nozimani qarz so'rashga majbur qilgan kimsa Osiyo opadir. Osiyo opa boylilik ilinjida, mashina minish orzusida Nozimani Qo'zivoyni qo'shib bermoqchi bo'ladi. U Nozimaning oilaviy ahvolidan yaxshi xabardor, shuning uchun sizga yordam beraman, ishingiz yurishib ketadi, deb (aslida pul evaziga) uni badnom qilmoqchi bo'ladi va bunga erishadi ham. Flora esa ochko'zligi tufayli, Nozimaga do'st tutinib, uni katta qarzga chuv tushirib, qochib ketadi.

Muallif Nozima xarakteridagi eng yetakchi xususiyatlarni bozor fonida to'laqonli ochib bera oladi. Bozor muhitining dahshatli sinovlari er-xotin Nozima va Samadni nechog'lik birlashtirsa, undagi yovuzlik, manfaatparastlik, tubanlik, nafs Qo'zivoyni va Osiyo opa singari ikki xil tabiatli kimsaning til topishiga ham imkoniyat yaratadi. Osiyo opa va'da qilingan jaraq-jaraq pul evaziga Nozimani badnafs Qo'zivoyni iflos to'shagiga yetaklab boradi.

Takabburlik, ta'na qilish, ayb qidirish eng qabih illatdir. Kishining tabiati ushbu illatlar bilan bulg'ansa, bu uning ishi, faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Takabbur kimsalarning o'zida yo'q halollikni boshqalardan talab qilishi juda kulgili tuyiladi. Chunki bu dunyoda barcha bir-birini ko'rib, kuzatib yuradi. Qissadagi Osiyo opa, Flora shundaylar toifasidan. Osiyo opa obrazi orqali shafqatsizlarcha ochib tashlangan voqelik, hayotiy haqiqat, bir umr rolga kirib yashagan, o'zini bekamu ko'st ko'rsatadigan, yo'q omadini ko'z-ko'z qiladigan, aslida g'arib va mushtipar Nozimaning haqiqatni tan olishga majbur qiladi.

Flora tuban va qabih ayollardan bo'lib, birinchidan, bozor muhitidagi manfaatparast, razil, firibgar kishilarning tipik timsoliga aylangan bo'lsa, ikkinchi

tomondan Nozima xarakteridagi biz bilmagan, kutmagan ijobiy qirralarini kashf etishimizga yordam beradi. Bozorning shafqatsiz o'yinlari, kutilmagan falokatlari bor. Nozimaning ana shunday kutilmagan holga tushib, kasodga uchrashiga Flora sababchidir. Nozimani tengsheriklikda Hindistondan mol olib kelib foyda haqidagi avrashlari bilan kattagina pulga chuv tushirib ketgan Flora ham tovlamachiligi uchun emas, o'zini Hindistonga parvoz chog'ida aviahalokatga uchraganligiga ishonтира olganligi uchun larzaga soladi. Nozima ketgan pullariga emas, Floraning yosh joni juvonmarg bo'lgani uchun esankirab qoladi. Aslida esa firibgar Flora bu nayrangni ataylab uyushtirgan, samolyot haqidagi e'lon ham soxta edi. Yozuvchi Osiyo va Flora obrazlari vositasida bozor muhiti hamda bozor odamlarining naqadar shafqatsiz ekanligini ifodalashga erishgan. Ammo muallifning asosiy g'oyaviy-niyati Nozima xakteri orqali ilgari suriladi. Uning sabr-toqatli ayolligi, tushkunlikka berilmasligi, har qanday murakkab vaziyatda ham o'zligini boy bermasligi muttaham va firibgarlarni tahlikaga soladi. Nozima – tadbirkor ayol. Biroq, u boshqa ayollardan bolalarcha soddaligi, beg'uborligi, eng asosiysi ishonuvchanligi bilan voqealar rivojida tobora ochilib boradi.

Qo'zivoi Nozimani jisman mavh etsa-da, uni ruhan sindira olmaydi. Nozima ayollik or-nomusi, eriga sodiqligi yo'lida so'nggi tomchi kuchi qolguncha kurashadi. Mehr-muhabbatini bag'ishlagan yagona erkak Samadga oxirgi lahzada ham xiyonat qilmaydi. Shu o'rinda U.Hamdanning "Muvozanat" romanidagi Zahro obrazi ko'z oldimizda gavdalanadi. Zahro boy, puldor Mirazimning xotini bo'lsa-da, u eriga xiyonat qiladi. Oygul esa yo'qchilikka chidolmay Yusufni tashlab ketadi. Nosir Zohidning "Qasos" qissasida Lobar yo'qchilikdan, dangasalikdan zinoga yo'l qo'yadi. Shu yo'l bilan kun o'tkazadi. Solih Qahorning "Daydi qizning daftari" asarida bir qancha ayollar Shohida, Hurshida, Tahmina kabilar hamko'ngilning quli, hayotga yengillik bilan boquvchi ayol sifatida gavdalanadilar. Shu jihatdan Kaniza, Oygul, Lobar, Shohida, Hurshida, Tahmina kabi obrazlar bilan qiyoslanganda, Nozima farishta ayol. U botqoqlikka botganda ham qiyin vaziyatda qolganiga qaramay, sadoqatli yor sifatidagi qiyofasini yuqotmaydi. Muallif pozitsiyasida Nozima umr yo'ldoshi Samadga qulday sadoqatli deb ko'rsatiladi. Nozima esa yo'qchilikka ham, to'qchilikka ham chidab, hayotda xursand yashaydi. Hayotning og'ir-qiynoqlarida ham, taqdirning turli tuman o'yinlarida ham u eriga xiyonat qilmaydi.

Bu yerda personaj odamlar o'zligini unutkan, vijdon, or-nomus o'zidan quvib yuborgan jamiyat vakili sifatida har tunda o'z makoniga, egasi ruhiyatiga, vujudiga kirish uchun yashirinib kelayotgan vijdon bilan kurashadi. Asliyatini o'zidan quvishga urinadi. O'tgan asrning so'nggi o'n-o'n besh yilida adabiyotimizda yuqoridagi kabi obrazlarni yaratish holati uchrab turgan. Masalan, Usmon Azimning "Dasht haqida ballada" asarida o'zi tug'ilib o'sgan dasht bilan birga shakllangan xarakter, ichki olamning asardagi obraz bilan Toshkentga kelgani, biroq lirik sub'ekt uni qabul qilolmasdan, vokzalda qoldirib, o'zi shaharda yangicha qiyofaga kirgani haqidagi fikr ifodalanga[4.54-bet]. Bunday o'xshashlik o'sha paytda yangi inson konsepsiyasini yaratishga bo'lgan intilish anchayin

dolzarb muammo bo'lgani bilan izohlanadi. Biroq A.Yo'ldoshev mazkur asarida azaliy muammoni o'ziga xos ichki monolog, personajning o'zi-o'zi bilan suhbatini ko'rishida, nasriy yo'l bilan ochiq bayon etgan.[5. 70-bet]

Asardagi Salima opa, Osiyo opa, Flora (yana bir ismi Janna) o'zining manfaati yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, boylik evaziga, o'zgalarni aldab, nopok yo'llarga undovchi ayollardir.

Ko'rinadiki, asardagi bu uchala ayollar o'ziga xos xarakterga ega. Biroq yozuvchi o'zining mazkur qissasida g'oyaviy maqsadi, badiiy idealidan kelib chiqib, voqea- hodisalarni xolis tasvirlashga harakat qilgan. Qahramonlarning insoniy qiyofasini belgilashda jamiyatda tutgan o'rni, turmush tarzi, o'zini qanday tutishini emas, qalb go'zalligini asosiy mezon qilib belgilagan. Shuning uchun ham asardan kelib chiqadigan asosiy xulosa – inson har qanday muhit va sharoitda ham inson bo'lib qolishi uning o'ziga bog'liqligidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Normatov U. Ijodkorning dahlsiz dunyosi. T., "Mumtoz so'z", 2008. 68-bet.
2. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. "Yangi asr avlodi" nashr. 2004. 77-bet
3. Yo'ldoshev A. A. Puankare: hikoya va qissalar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 77-86.
4. Usmon Azim. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995.- B.54. (432 b.)
5. Jo'rayeva M. Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi. Toshkent. "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2021 yil.
6. Yusupova, N. (2021). PECULIARITIES OF LEARNING ACTIVITIES OF STUDENTS WITH INTELLECTUAL DISABILITIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 138-142.
7. Berdiyeva, G. (2022, September). " FINE ART" IS A CREATIVE PRODUCT FOR CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 124-127).
8. Mirakhmedova, L. A. (2021). THE ROLE AND ROLE OF LOGORITHMIC EXERCISES IN ELIMINATING SPEECH DEFICIENCIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 122-125.
9. Rustamovna, U. N., & Madaminovna, B. M. (2022). THE STUDY OF THE CONCEPT AS A UNIT OF COGNITIVE LINGUISTICS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 66-69.
10. Pulatova, M. (2019). The main finite difference method summation of L. Euler series. In Science and practice: a new level of integration in the modern world (pp. 219-222).
11. Jabbarov, U. (2020). Individual Psychological Characteristics Of Students In Teaching Foreign Language Sciences. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(1), 38-42.
12. Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 94-97.

13. Абдуллаева, Р. М. (2022). Коммуникационные Технологии Языкового Обучения В Медицинском Вузе. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(6), 98-102.
14. Abdullaeva, R., Esanow, F. N. U., & Eshbaeva, N. (2022). Translation as a means of teaching clinical terminology.
15. Абдуллаева, Р. М. (2019). Ситуативный контекст в процессе преподавания русского языка студентам медицинских вузов. In *Современная Россия в мировом политическом процессе: глобальное и региональное измерение* (pp. 357-363).
16. Абдуллаева, Р. М. (2021). СЕТЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. Редакционная коллегия.
17. Кулахметова, Ж. Т. (2018). ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. *НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ*, 51.
18. Abdullaeva, R., Mirrahimova, G., Israilova, I., Eshbaev, O., & Aminova, G. (2020). Learning foreign vocabulary using computer programs. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 567-572.
19. Mirzatullaeva, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. *Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(18), 80-85.
20. Абдуллаева, Р. М. (2016). СВОЕОБРАЗИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ВЕЛИКОБРИТАНИИ. *Ученый XXI века*, 9.
21. Zairova, N. B. (2022). THE USE OF ARTICULATORY STATES OF SOUNDS IN THE ELIMINATION OF PHONETIC-PHONEMIC SPEECH DEFICITS OF STUDENTS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS IN LOGOPEDIC TRAINING. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 23-27.
22. Zairova, N. B. (2022). ORGANIZATION AND CONDUCT OF SPEECH THERAPY CLASSES WITH STUDENTS WITH SPEECH DISORDERS IN SECONDARY SCHOOLS. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 75-80.
23. Abdullayeva, Y. (2022). THE IMPORTANCE OF COMPUTER PROGRAMS IN FORMING THE VOCABULARY OF CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCIES. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 87-92.
24. Sabirova, Z. I. (2022). PREPARATION OF CHILDREN WITH SPEECH DISTURBANCE IN SCHOOL IN THE CONDITIONS OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 59-64.

25. Sabirova, Z. I. (2022). PREPARATION OF CHILDREN WITH SPEECH DISTURBANCE IN SCHOOL IN THE CONDITIONS OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 59-64.
26. Ilxamjanova, S. Z. (2021, May). MODELING THE DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT IN SCHOOLS FOR CHILDREN WITH SEVERE DISABILITIES. In *E-Conference Globe* (pp. 259-263).
27. Sabirova, Z. (2021). Model of preparing children with delayed mental development to school in conditions of preschool educational institutions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 700-706.
28. Shoakhmedova, S. K. (2022). CHARACTERISTICS OF THE SPEECH THERAPIST'S ACTIVITY IN THE GENERAL EDUCATION SCHOOL IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 17-22.
29. Shoakhmedova, S. K. (2022). USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN WORK WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 81-86.
30. Gapurova, D. (2022). DIFFERENTIAL DIAGNOSIS OF CHILDREN WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISORDER. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 12-16.
31. Gapurova, D. (2022). CHILDREN WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISABILITIES (CHILDREN WITH SENSORY AND MENTAL DISABILITIES). *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 06-11.
32. Gapurova, D. (2021). Children with complexed developmental disorders. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 683-687.
33. Гапурова, Д. Т. (2020). АЛОҲИДА ЁРДАМГА МУҲТОЖ БОЛАЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ОЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 8).
34. Gapurova, D. T. (2019). Vocabulary Disorders of Children with Motor Alalia. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
35. Alimova, K. K. (2022). DEVELOPMENT OF GRAPHOMOTOR SKILLS IN CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS CURRENT ISSUES. *International Journal of Pedagogics*, 2(12), 05-09.
36. Alieva, S. S. (2022). MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF VOICE DISORDERS IN DYSARTHRIA. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11).
37. Alieva, S. S. (2022). PECULIARITIES OF SPEECH OF CHILDREN WITH DYSARTHRIA. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 41-46.

38. Shaabdurakhimova, S. S. (2021). Voice formation mechanism and causes of voice impairment. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2259-2265.
39. Khusniddinova, B. K. (2022). INTERACTION OF A SPEECH THERAPIST WITH OTHER PARTICIPANTS IN THE CORRECTIONAL PROCESS. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 01-05.
40. Khusniddinova, B. X. (2021). LOGOPEED'S CODE OF ETHICS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 97-100.
41. Khusniddinova, S. K. (2019). Didactic Games Role in Work on Sound Automation. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
42. Abutova, S. O. (2022). RULES FOR COMMUNICATING WITH PRESCHOOL CHILDREN WHO STUTTER. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(12), 48-55.
43. кизи Мукимджонова, У. В., Исаков, М. Ю., & Худжаева, Н. Т. (2022). VIGNA SINENSIS, PHASELOUS AYREUS, ARACHNIS HYPOGAEA O'SIMLIKLAR DONLARI VA ROYALARINING ORGANIK TARKIBI. *Журнал химии товаров и народной медицины*, 1(2), 185-202.
44. Исаков, В. Ю., Исаков, М. Ю., & Мукимжонова, У. В. К. (2022). МИКРОБИОГЕННЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ В СИСТЕМЕ «ПОРОДА-ПОЧВА-РАСТЕНИЕ» НА ЛУГОВО-ОАЗИСНЫХ ПОЧВАХ ЗАПАДНОЙ ФЕРГАНЫ. *Universum: химия и биология*, (9-1 (99)), 45-50.
45. Кушназарова, Ш. К., Азимов, Н. Ш., Валиев, Н. В. Ў., & Очилов, Г. М. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В НЕКОТОРЫХ ВИДАХ СЫРОГО МЯСА. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 53-57.
46. Хамзахўжаев, А. А., Валиев, Н. В., & Очилов, Г. М. (2021). МЕЛАМИННИНГ САНОАТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР ТЎҒРИСИДА. *Журнал естественных наук*, 3(5).
47. Akhiyarov, A. A., Lobov, A. N., Ivanov, S. P., Spirikhin, L. V., Gabbasov, T. M., Tsyrlina, E. M., ... & Yunusov, M. S. (2020). Antiarrhythmic agents based on diterpenoid alkaloid lappaconitine. Protonation of N-deacetylappaconitine in methanol solutions. *Russian Chemical Bulletin*, 69(3), 567-571.
48. Ботиров, Р. А., Валиев, Н. В. Ў., Жураев, О. Т., Садиков, А. З., Сагдуллаев, Ш. Ш., & Турсунова, Ш. З. (2020). Технология производства алкалоида стахидрина из растения *Capparis spinosa* L. *Universum: технические науки*, (9-2 (78)), 55-59.
49. Omonjonovich, N. B., Kosimovna, K. S., Valijon o'g'li, V. N., & Shukhratovich, A. N. (2022). ON THE MODERN INTERPRETATION OF THE HISTORY OF CHEMISTRY. *Open Access Repository*, 8(12), 655-658.
50. Kosimovna, K. S., Omonjonovich, N. B., Shukhratovich, A. N., & Azamovna, K. M. (2022). CLASSIFICATION OF HEAVY METALS IN

- MEAT AND DAIRY PRODUCTS BASED ON THE DEFINITION. Open Access Repository, 8(11), 260-265.
51. Кушназарова, К. Ш. (2022). Совершенствование системы классификации мясомолочной продукции на основе товарной номенклатуры (Doctoral dissertation, Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философии по техническим наукам (PhD). Ташкент).
 52. Кушназарова, Ш. К., Азимов, Н. Ш., Валиев, Н. В. Ё., & Очилов, Г. М. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В НЕКОТОРЫХ ВИДАХ СЫРОГО МЯСА. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 53-57.
 53. КАРИМОВА, Д. Б., КАЗИМОВА, Н. М., АСЛАНОВА, Ф. И., МЕЛИБОЕВА, Г. С., & МАХМУДОВ, И. Т. (2015). ОПРЕДЕЛЕНИЕ УСЛОВИЙ СИНТЕЗА ГЕКСААЛЮМИНАТА ЛАНТАНА МАГНИЯ. In *Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2015* (pp. 25-26).
 54. КАРИМОВА, Д. Б., КАЗИМОВА, Н. М., МАХМУДОВА, С. А., ДЕХҚОНОВА, К. Д., & МАХМУДОВ, И. Т. (2015). ДИСЛОКАЦИОННЫЕ ДЕФЕКТЫ В МОНОКРИСТАЛЛАХ ГЕКСААЛЮМИНАТА ЛАНТАНА МАГНИЯ. In *Молодежь и XXI век-2015* (pp. 15-18).
 55. Муминова, Р. Н., & Казимова, Н. М. (2015). Проблема очистки сточных вод в Узбекистане. *Молодой ученый*, (22), 47-48.
 56. ХАЛИМОВА, М. Р., ТАШПУЛАТОВА, Д. С., & КАЗИМОВА, Н. М. (2015). АНТРОПОГЕННОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЧИСЛЕННОСТЬ РАСТИТЕЛЬНОГО МИРА. In *Молодежь и XXI век-2015* (pp. 363-365).
 57. НОМОЗОВ, Ш. Ю. О., КАЗИМОВА, Н. М., & МАХМУДОВ, И. Т. (2014). ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ БИТУМА ИЗ ГОССИПОЛОВОЙ СМОЛЫ. In *Будущее науки-2014* (pp. 105-107).
 58. Туляганов, Т. С., Козимова, Н. М., & Султанов, С. А. (2008). Новые алкалоиды *Reganum Harmala* {*Reganaceae*. *Растительные ресурсы*, 44(1), 82-86.
 59. Tulyaganov, T. S., Kozimova, N. M., & Allaberdiev, F. K. (2006). Alkaloids from plants of the genus *Nitraria*. *Chemistry of natural compounds*, 42(2), 198-200.
 60. кизи Мукимджонова, У. В., Исаков, М. Ю., & Худжаева, Н. Т. (2022). *VIGNA SINENSIS, PHASELOUS AYREUS, ARACHNIS HYPOGAEA O'SIMLIKLAR DONLARI VA ROYALARINING ORGANIK TARKIBI*. *Журнал химии товаров и народной медицины*, 1(2), 185-202.
 61. Azimova, N. R., Hojaev, V. U., Hojayeva, N. T., & Oxunov, I. I. (2020). NICOTINE-CONTAINING PLANTS. *Life Sciences and Agriculture*, 2(2), 37-41.
 62. Ravshanovna, A. N., Umarovich, X. J. V., Toshtemirovna, X. J. N., & Islomovich, O. I. (2020). Tarkibida nikotin saqlovchi o'simliklar. *Life Sciences and Agriculture*, (2-2), 37-41.

63. Рахимова, Г. С., Мирзахамдамова, Д. З., & Расулов, М. А. (2016). Экологические проблемы в области Фергане: исторический аспект. Высшая школа, (21-2), 73-75.
64. Рахимова, Г. (2020). ОЛМАЛИҚ ШАҲРИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТНИНГ ЎЗГАРИШ САБАБЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-3).
65. Рахимова, Г. С. (2020). 1950-80 ЙИЛЛАРДА НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТЛАР. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 135-138).
66. Рахимова, Г. С. (2020). БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ САНОАТ КОРХОНАЛАРДАГИ ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(11).
67. Rakhimova, G. S. (2022). KARAKALPAKISTAN, ENVIROMENTAL SITUATION. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 176-181.
68. Sobirjonovna, R. G. (2021). IMPACT OF PROBLEMS IN THE INDUSTRY OF KARAKALPAKISTAN ON THE ENVIROMENTAL SITUATION.
69. Рахимова, Г. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА 1940-1980 ЙИЛЛАРДА САНОАТЛАШТИРИШ СИЁСАТИНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(8).
70. Rahimova, M. O., & Muhammadqodirova, F. O. (2022). THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK NATIONAL LANGUAGE IN THE 20TH CENTURY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 132-135.
71. Rakhimova, M. O. (2022). About antonymy. Eurasian Research Bulletin, 14, 309-311.
72. Odilovna, R. M., & Otabekna, M. F. (2022). Presupposition of Adjectives. Eurasian Scientific Herald, 14, 17-19.
73. Rahimova, M. (2022). SEMIOTIC ISSUES OF WORD NOMEMA. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 333-336.
74. ODILOVNA, R. M. (2022). THE SOUND SIDE OF THE WORD AND ITS SIGNIFICANCE. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(1), 61-64.
75. Odilovna, R. M. (2021). Meaning and its Place in the Symbolic Status of the Word. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 96-98.
76. Раҳимова, М. (2021). НОМЕМА ВА СЕМЕМАНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ: DOI: 10.53885/edinres. 2021.23. 79.047 М. Раҳимова, Қўқон ДПИ, филология фанлари бўйича фалсафа доктори. In Научно-практическая конференция.
77. Rakhimova, M., & Muhammadkadirova, F. (2021). CORRELATIVE WORDS. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 1, No. 2).

78. Odilovna, R. M. (2018). The Role and Status of Linguistic Markers in the System of Symbols. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(7), 29-34.
79. Рахимова, М. О. (2017). ПРИОБРЕТЕНИЕ ЗНАКОВОСТИ СЛОВА В ВИРТУАЛЬНЫХ И АКТУАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ. *Ученый XXI века*, (1-2).